



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI



**13-14
MAY
2022**

**“BOSHLANG‘ICH VA
MAKTABGACHA TA’LIM
SIFATI VA SAMARADORLIGINI
OSHIRISH MUAMMOLARI:
INNOVATSIYA, RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR VA
XALQARO
TAJRIBALAR”**

**Respublika ilmiy-amaliy
anjumani**

Buxoro - 2022



OPEN ACCESS



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT
UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI MAKTABGACHA
TA'LIM VA BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA
METODIKASI KAFEDRALARI**

**"BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATI VA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI:
INNOVATSIIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALQARO
TAJRIBALAR"**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANIMATERIALLARI

2022-yil, 13-14 may

BUXORO- 2022

Ilmiy-amaliy anjumanning dasturiy qo'mitasi

O.H. Hamidov	-	Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor, rais.
M.I. Damonov	-	Buxoro davlat universitetining Pedagogika institut direktori, pedagogikafanlari nomzodi, dotsent, rais
Sh.N.Murodov	-	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinnbosari, f-m.f.d (PhD)dotsent, rais muovini;
A.A. Ikramov	-	IT, I va IPKTB bo'limi boshlig'i, p.f.f.d. (PhD), a'zo;
O.R.Avezov	-	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, a'zo;
G.T. Boymurodova	-	Maktabgacha ta'lim kafedrasи mudiri p.f.d (DSc), dotsent, a'zo
M.J. Saidova	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи mudiri, p.f.f.d. (PhD),dotsent, a'zo;
U.S. Amonov	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи dotsenti, f.f.f.d. (PhD), a'zo;
N.T. Tosheva	-	Maktabgacha ta'lim kafedrasи o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD), dotsent, a'zo;
F.S. Safarov	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи dotsenti, f.f.n., a'zo;
X.A. Hayitov	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи dotsenti, f.f.f.d.(PhD), a'zo;
N.B. Adizova	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи dotsenti, f.f.f.d. (PhD), a'zo

Ilmiy-amaliy anjumanning tashkiliy qo'mitasi

Sh.N. Murodov	-	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinnbosari, f-m.f.d (PhD)dotsent, rais muovini;
A.A. Ikramov	-	IT, I va IPKTB bo'limi boshlig'i, p.f.f.d. (PhD), a'zo;
G.T. Boymurodova	-	Maktabgacha ta'lim kafedrasи mudiri p.f.d (DSc), dotsent, a'zo
M.J. Saidova	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи mudiri, p.f.f.d. (PhD),dotsent, a'zo;
N.T. Tosheva	-	Maktabgacha ta'lim kafedrasи dotsenti, p.f.f.d. (PhD), a'zo;
N.B. Adizova	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи dotsenti, f.f.f.d. (PhD),a'zo;
G.E. Saidova	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи katta o'qituvchisi, a'zo;
D.S.Do'stova	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи o'qituvchisi, a'zo;
M.N. O'rinova	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи o'qituvchisi, a'zo;
N.O'. Xudoyberdiyeva	-	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasи o'qituvchisi, kotib;
G.D.Niyozova	-	Maktabgacha ta'lim kafedrasи katta o'qituvchisi
S.H .Ro'ziyeva	-	Maktabgacha ta'lim kafedrasи o'qituvchisi
Z.M.Ashurova	-	Maktabgacha ta'lim kafedrasи o'qituvchisi
U.B.Muxsinova	-	Maktabgacha ta'lim kafedrasи o'qituvchisi

To'plam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-martdagи 101-F-sonli farmoyishida tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda xalqaro va respublika miyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishi maqsadida 2022-yil 13-14-may kunlari Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedralari hamkorligida **"Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari: innovatsiya, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar"** mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharir:

M.J. Saidova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

B.R. Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor

N.T. Tosheva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

BOLALAR O'YINIGA TARBIYACHINING RAHBARLIK QILISHI

*BuxDUPI Maktabgacha ta'lif
kafedrasi mudiri p.f.f.d (PhD)., dotsent N.T.Tosheva
BuxDU Xorijiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi
N.Z.Qodirova*

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar o'yiniga tarbiyachining rahbarlik qilishi, o'yin mazmuni ta'lif-tarbiya beruvchi ahamiyati, o'yin faoliyati asosida boladagi bilish faoliyati rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'yinda obraz, o'yin harakati, so'z, ijtimoiy-pedagogik, psixik taraqqiyot, o'yinning g'oyasi, individual, samarali rivojlanish.

O'yin bolalarning qiziqarli ermagigina bo'lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o'yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobjiy natija beradi.

Pedagog bolalar o'yinini tashkil etar ekan, quyidagi talablarga e'tibor berishi zarur:

- a). O'yin mazmuni ta'lif-tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo'lishi;
- b). Aks ettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to'g'ri va to'la bo'lishi;
- v). O'yin harakatlari faol, ma'lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo'lishi kerak;
- g). Hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda o'yiniga rahbarlik qilish;
- d). O'yinchoqlar va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o'yinda xayriyoh va xursand bo'lishlarini ta'minlash lozim.

Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga: ongiga, his-tuyg'ulariga, irodasiga, xulqiga ta'sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanishi lozim.

O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Shunday qilib, o'yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to'g'ri rahbarligida uning tushunchalarini kengayadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobjiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi.

O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi.

O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir. O'yinda bola kishilarning axloq-odob normalarini, mehnatga munosabatlarini, jamiyat mulkiga, boshqalarga munosabatlarini bilib oladi.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadilar.

Ammo o'yinga to'g'ri rahbarlik qilinmasa, u noxush oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o'yindan keng foydalanadi. Juda ko'pchilik o'yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi, bu esa o'z navbatida organizmda modda almashinishini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat qilish bola gavdasining to'g'ri o'sishini, harakatlari chirolyi bo'lishini ham ta'minlaydi. Ammo o'yin pedagogning rahbarligisiz o'z-o'zidan jismoniy tarbiya vositasi bo'lomaydi, chunki ortiqcha harakat qilib yuborish yoki uzoq vaqt bir vaziyatda o'tirish bolaning sog'lig'iga zarar keltirishi mumkin. Bundan tashqari, o'yin paytida gigienik shart-sharoit tug'dirish uchun alohida g'amxo'rlik qilish lozim.

O'yin orqali tarbiyachi bolalarda qувноқ kayfiyat yaratadi, ijobjiy ruhiyat hosil qiladi, bu esa bolaning asab-ruhiy, jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi.

O'yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqelikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar.

O'yinda bolalarning avval olgan taassurotlari orqali obraz yaratishlari — xayol juda katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko'p o'yinlarda avval o'rgangan ashula, she'r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda estetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi.

Bolalar hayotini tashkil etishda o'yinning roli. O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobjiy natijalarga erishishi mumkin. A. P. Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish — ularni to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni

tarbiyalashning o‘yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o‘yinda bola yashashni o‘rgapmaydi, balki o‘z hayoti bilan yashaydi».

O‘yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg‘ulot o‘rtasida bolalar o‘yiniga 8—10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘pincha avval boshlagan o‘yinlarini davom ettiradilar. Sayarda bolalarning o‘ynashlari uchun 1 soat—1 soatu 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o‘yiniga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘proq syujetli-rolli o‘yinlarni, qurilish materiallari, qo‘g‘irchoqlar bilan, stol usti o‘yinchoqlari o‘ynashlari mumkin. Shu bilan birga ermak o‘yinlardan ham foydalaniladi.

Ammo o‘yin bilan ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlik bola ulg‘aygan sari o‘zgarib boradi. Kichik guruhda o‘yin ta’lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg‘ulotlarda ta’limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o‘zlarida maktabdagisi o‘qishga ishtiyoq uyg‘onib qoladi.

Ammo bolalar uchun o‘yining qadri yo‘qolmaydi, balki mazmuni o‘zgaradi. Endi bolalarni ko‘proq fikriy faoliytki talab etuvchi o‘yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o‘yinlar qiziqtira boshlaydi.

Pedagogika fani o‘yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O‘yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko‘nikmalari, harakat usullarini, axloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O‘yinda bolaning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.

Bolalarning o‘yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo‘linadi.

Birinchi bosqich bolalarning «yonma-yon» o‘yinining shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga xosdir. Bunday o‘yinda bolalar o‘rtog‘ining o‘yiniga qiziqish bilan qaraydilar, birga o‘ynab, «yonma-yon» o‘tirganlaridan xursand bo‘ladilar. Bu yoshdagi bolalarning o‘yini kattalar rahbarligida ularning xulqiga ta’sir etish orqali tashkil etiladi.

Ikkinci bosqichda bolalar o‘yin orqali mexanik ravishda birlasha boshlaydilar. Bunday birlashishlar qisqa muddatli bo‘ladi. Bu davrga kelib bolalardan kimning qaysi o‘yinga qiziqishi aniq bo‘la boshlaydi, bir xil bolalar didaktik o‘yinga qiziqsalar, ikkinchilari harakatli o‘yinni yoqtiradilar, uchinchilariga ijodiy o‘yinlar ma‘kulroq bo‘ladi va h.k. Tarbiyachining vazifasi bolalarni u yoki bu o‘yin bilan uzoqroq o‘ynashga o‘rgatishdir.

Uchinchi bosqichda o‘ynovchi bolalar guruhi bir-biriga do‘stona munosabat va o‘zaro yoqtirish orqali birlashadilar. Birga o‘ynovchilar soni ko‘p bo‘lmasa-da, bolalar qiziqib o‘ynaydilar. Bu davrga kelib bir-birlariga baho berish umumiy talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o‘yinda birlashishlarining axloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o‘zaro yordam, o‘rtoqlik, do‘slik munosabatlarini shakllantirishi lozim.

Bolalarning o‘yinlari qiziqarli, mazmunli bo‘lishi uchun o‘yining hamma turlaridan o‘rinli foydalanilsa, bolalarga ta’lim berish va ularni tarbiyalashda ijobjiy natijalarga erishiladi.

Tarbiyachining o‘yin jarayoniga rahbarlik qilish metodikasini egallagan bo‘lishi o‘yinlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Pedagog o‘yin faoliyatiga rahbarlik qilar ekan, bolalarni asta – sekin va “sezdirmasdan” qiziqarli o‘yin vazifalarini bajarishda mustaqillik va topqirlik ko‘rsatish, yuzaga kelgan o‘yin vaziyatida chaqqon va intilib harakat qilish, o‘rtoqlik yordami berish, hamma uchun umumiy bo‘lgan maqsadga erishishga va bunday quvonishga o‘rgatib boradi.

Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o‘yinga jalb qilish, bolalar o‘rtasida do‘slikka, haqqoniyligka, o‘rtoqlarini javobgarlikni sezishga asoslaigan munosabatlar o‘rnatishdan iboratdir. O‘yinni bolalar o‘z ixtiyorlari bilan o‘ynaydilar, ammo boshqa hech bir faoliyatda o‘yindagi singari bolalarning xulqi bilan bog‘liq bo‘lgan qat’iy qoida yo‘q. Bunday qat’iy qoida ijodiy o‘yinga ham, qoidali o‘yinga ham, qoidani bolalar o‘zlarini o‘rnatadigan o‘yinga ham tegishlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirova F.R., M.Fayzullayeva, M. Rustamova. “Tayyorlov guruh tarbiyachilari uchun nutq o‘stirish mashg‘uloti ishlanmalari” (metodik qo‘llanma) T.: 2010.
2. Qodirova F.R., R. M.Qodirova "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi " Toshkent-2006y
3. N.T.Tosheva, M.H. Mustafayeva Registration of age and individual characteristics in education as a pedagogical problem. European scholar journal ISSN(E): 2660-5562 Jurnal Impact Faktor: 7.235 Volume 2, Issue 4 April 2021.– B. 85- 90
<https://scholar.google.com/citations?user=jJE1SeoAAAQ&hl=ru&oi=ao>
4. N.T.Tosheva, A.M.Ibodullayeva Pedagogical bases of training of qualified pedagogical staff. **International Engineering Journal For Research & Development: Vol. 6 No. 3 (2021); VOLUME 6 ISSUE 3** SJIF: 7.169 <http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/2228>

5. Тошева Н. Т. Педагогико-психологические подходы к развитию познавательной деятельности учащихся начальной школы //Педагогические науки. – 2011. – №. 6. – С. 44-46.
6. Тошева Н. Т. Организация учебно-познавательных ситуаций начальных классов на основе дидактико-психологических подходов //Новое слово в науке и практике: гипотезы и апробация результатов исследований. – 2017. – С. 42-46.

7. Тошева Н. Т. Бошлангич синф ўқувчиларининг билиш фаолиятини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари Fan va jamiyat. – Нукус, 2020. – №2. – Б. 109-111.

https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1540/942

8. Тошева Н. Т. Бошлангич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари Муғаллим ҳам узлуксиз билимленидириў. – Нукус, 2020. – №2. – Б. 126-132. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1544/941

9. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. Education process directed to the person as the basis of increasing knowing activity of pupils. // The advanced science open access journal. United states, 2013. №6. . Стр. 83-85.

MAKTABGACHA YOSNDAGI BOLALARDA ATROF- MUHIT ORQALI EKOLOGIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

Kamilova. G. A- BuxDUPİ maktabgacha ta'lim kafedrasi dosenti, p.f.n

Annotasiya : Ekologik tarbiyalash tarbiyalanuvchilarda tabiatni muntazam kuzatib borishga qiziqishni uyg'otadi, tabiatni himoya qilish uchun kurashishga, uning go'zalligini asrab-avaylashga olib keladi. Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga atrof- muhit orqali ekologik dunyoqarashni shakllantirish masa-lalari yoritilgan.

Kalit so`zlar: ekologik dunyoqarash, maktabgacha ta'lim yoshi, atrof-muhit, savodxonlik , madaniyat, ta'lim va tarbiya, tabiat, ob'ektl.

Ma'lumki, bola shaxsi o'zaro va bioijtimoiy munosabatlar tizimida tarkib topadi. Bu munosabatlarni keltirib chiqaradigan asosiy manba - bolaning hissiy bilish jarayoni va o'yin faoliyatidir. Demak, bola shaxsiga xos bo'lgan barcha psixologik holat va jarayonlar ijtimoiy hayot hamda atrof-muhit ta'sirida vujudga keladi. Bola o'z faoliyati jarayonda o'zini o'rab turgan tabiiy va antropogen narsalar va hodisalar mohiyatini bilib oladi. Bolaning atrof-muhitni hissiy bilish jarayoni o'z mohiyati va xususiyati jihatidan bir-biridan shartli farq qiluvchi uch bosqichdan iborat bo'. Zero, hissiy bilish bolaning sezgilariga bevosita ta'sir etgan tashqi atrof-muhit (tabiat) va uning alohida xossalaring ko'rinishlar, qiyofalar, tasvirlar, manzaralar shaklida ongida aks etishidir.

Mazkur yoshdagi bolalarning fikrlashi va hissiyotining yuqoriligi ularda birgalikda qayg'urish, kechayotgan hodisalarga mansublik hissini keltirib chiqaradi. Shu sababli bolalarda atrof-muhit hodisalari va odamlarning hatti-harakatlariga qiziqishni ilk bolalik davridan uyg'otish va ularga nisbatan hissiy-ijobiy munosabatni shakllantirish talab etiladi.

Bola o'zini o'rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalari: havoning issiq- sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta'mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagи xilma-xil ob'ektlarning rangini ko'zi bilan, tovushlarni qulog'i bilan sezib, ya'ni mazkur xossalalar bolaning besh turli sezgisiga ta'sir etib, shu a'zolarda joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to'g'risida bilim paydo bo'ladi, ularning ko'rinishlari, qiyofalar, tasvirlari, manzaralar vujudga keladi.

Falsafiy-psixologik nuqtai nazardan bola bilimining manbai sezgidir. Chunki bola atrof- muhit haqidagi dastlabki bilimlarni o'z sezgilaridan oladi. Bolaning atrof-muhit haqidagi boshqa birmuncha murakkab bilimlari mana shu dastlabki

maktabgacha bilimlari asosida vujudga keladi. Demak, bolani tabiiy va antropogen muhit bilan bog'lovchi eng birinchi yo'l ham atrof- muhitdagi ob'ektlar va hodisalarni sezishdir. Atrof-muhitdagi ob'ektlar va hodisalarni idrok etish sezishga nisbatan birmuncha murakkab jarayon. Idrokda ob'ektlar yoki hodisalar butun holda aks etadi, ya'ni ularning yaxlit manzarasi, tasviri vujudga keladi. Masalan, yomg' ir, qor manzaralari va h.k.

Xususiy tasavvurlar atrof-muhitdagi aniq ob'ektlar tasviri, manzarasidir. Ular aniq ob'ektlarni, masalan, aynan daraxtni, yo'lni, ko'prikn, soyni, ariqni, ko'chani, mahallani aks ettiradi. Shuningdek, ayni paytda ko'cha yoki mahalla hududining tabiatini va kishilar hayotini ham aks ettiradi. Natijada bola ongida muayyan hududlarning hajmdor yoki hajmsiz, rangli yoki rangsiz, aniq yoki noaniq shakldagi manzaralari hosil bo'ladi va bu jarayon vaqt va tajribaga bog'liq holda tiniqlashib boradi. Demak, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonida ularning hissiy bilishiga tayanilib ish ko'rildi va shu asosda

Sayfullayev G'ulom Mahmudovich, Sattorova Dilfuza Bahodir qizi BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.....	481
Ochilova Dilafro'z Rashidovna. BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	482
U.S.Amonov, Z. J. Murtazoyeva. HADISLARDA KOMIL INSONNI TARBIYALASH MUAMMOLARI IFODASI.....	484
Кушназарова Юлдузхон Кулназаровна. УСЛОВИЯ УСПЕШНОГО ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БАКАЛАВРА.....	486
Ҳ.Т.Боймуродов. МАКТАБГАЧА ТАЛЬИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ТАРБИЯ МАШФУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ФИЗИОЛОГИК АСОСЛАРИ.....	489
Artikbaeva Zamira Allayarovna. BOSHLANG'ICH MATEMATIKA KURSIDA «TENG» VA «KICH1K» MUNOSABATLARI. QO'SHISH VA AYIRISH QONUNLARI.....	492
Уразова Зулфия. РАЗНЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БАКАЛАВРА (ПРОФИЛЬ «НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ»).....	494
Холматова Зулфия Топиболдиевана. БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ШАРҚОНА ТАРБИЯНИ ШАКЛАНТРИЩА ГЕНДЕРЛИ ЁНДАШУВ	496
<i>Shukurova Madina O'ktam qizi. BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLAR.....</i>	499
<i>N.T.Tosheva, N.Z.Qodirova. BOLALAR O'YINIGA TARBIYACHINING RAHBARLIK QILISHI ..</i>	501
Kamilova. G. A. MAKTABGACHA YOSNDAGI BOLALARDA ATROF- MUHIT ORQALI EKOLOGIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH.....	503
<i>N.Z.Qodirova. O'YINNING BOLALAR FAOLIYATINING ASOSIY TURI SIFATIDAGI O'ZIGA XOSLIGI.....</i>	505
<i>Toishputalova Дурдона Комилжон қизи. ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МАНТИКИЙ ФИКРЛАШ УСУЛЛАРИ.....</i>	507
Sh. Murodova, M.Sh. Mustafoyeva. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI.....	508
Shokirova Saodat Zarifovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI.....	511
Hayitov Hamza Ahmadovich, Jalolova Saltanat Jasur qizi. O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHDA IJODIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	514
Гулбахор Давроновна Ниязова, Емельянова Ирина. ТЕАТРАЛИЗОВАННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК СРЕДСТВО КОРРЕКЦИИ ПСИХО-РЕЧЕВОГО НЕДОРАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ С ЗПР.....	517
Ситора Давроновна Ниязова, Терещенко Марина Николаевна. СОВРЕМЕННОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ О ФИЗИОЛОГИЧЕСКОЙ МЕХАНИЗМЕ ВНИМАНИЯ	519
Abdullayeva Feruza Izzatovna. BOLANING IJTIMOIYLASHUVIDA MAHALLA, MAKTAB, VA OILA HAMKORLIGINING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	521